

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/04.06.2021.Fil.72.09
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

AZIMOVA MUXABBAT SAMADOVNA

SADRIDDIN SALIM BUXORIY IJODI BADIYATI

10.00.02 – O‘zbek adabiyoti

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2024

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
филологическим наукам**

**The contents of the dissertation abstract for a Doctor of Philosophy (PhD) in
Philology**

Azimova Muxabbat Samadovna

Sadriiddin Salim Buxoriy ijodi badiiyati..... 3

Azimova Muxabbat Samadovna

Художественность творчества Садриддина Салима Бухари..... 23

Azimova Muxabbat Samadovna

The artisticity of Sadriiddin Salim Bukhari's work..... 43

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 47

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/04.06.2021.Fil.72.09
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

AZIMOVA MUXABBAT SAMADOVNA

SADRIDDIN SALIM BUXORIY IJODI BADIYATI

10.00.02 – O‘zbek adabiyoti

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2024

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/Fil3324 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Sharipova Laylo Frunzeyevna

filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Rasmiy opponenlar:

Davronova Shohsanam G'aybulloevna

filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Ochilov Ergash Zokirovich

filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Samarqand davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi DSc.03/04.06.2021.Fil.72.09 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil «__» _____ soat ___ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100118, Buxoro shahri, Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (+998-65) 221-29-14; faks: (+998 65) 221-57-27; e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz)

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100118, Buxoro shahri, Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (0 365) 221-25-87.)

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil «__» _____ kuni tarqatildi.

(2024 yil «__» _____ dagi _____ - raqamli reyestr bayonnomasi.)

Y.S.Saidov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

A.R.Axmedov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy
kotibi, filologiya fanlari doktori (DSc),
dotsent

D.Z. Rajabov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, filologiya
fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon adabiyotshunosligida she'r poetikasi, muayyan ijodkorga xos mahorat, ijod olami, badiiyatni yuzaga keltirishdagi individuallik, an'ana, vorisiylik va novatorlik singari muammolarni yoritishga doimiy e'tibor berib kelinmoqda. Jumladan, ijodkor shaxsini, ijodining mavzular ko'lamini, obrazlar tizimi singari muammolar mohiyatini ochib berish muntazam davom etib kelayotgani adabiyotshunoslik taraqqiyoti uchun alohida ahamiyat kasb etadiki, bu badiiyatning mukammallashuvi bilan bog'liq masalalarni ilmiy-nazariy jihatdan o'rganishga imkoniyat yaratadi.

Dunyo adabiyotshunosligida she'r nazariyasi, she'riyatda janr, vazn, qofiyadagi o'ziga xosliklarni yoritish, poetik mahoratni belgilovchi omillarni, ijodkor adabiy-estetik qarashlarining shakllanish bosqichlarini aniqlash bo'yicha ma'lum izlanishlar olib borilmoqda. Ayniqsa, muayyan ijodkor badiiy mahoratini o'rganish asosida poetika ilmining yangi qirralarini kashf etish, zullisonaynlik va tarjimonlikning badiiyatga bog'liq jihatlarini, lirik asarlar yaratishda an'ana va novatorlik belgilarining namoyon bo'lishini, badia janriga xosliklarni ilmiy-nazariy jihatdan o'rganishga alohida diqqat qaratilmoqda.

Istiqlol yillari o'zbek adabiyotshunosligida nazmni badiiyat nuqtayi nazaridan o'rganish, adabiyotda o'z o'rniga ega ijodkorlarning poetik mahoratini yoritishga jiddiy e'tibor berilmoqda. Zero, "Insoniyat dunyosining buyuk yoritqichi – ma'naviyat chirog'i bor. Bu chiroqning boshqalardan farqi shuki, u insonning ongi va tafakkurini yoritadi, qalbi, vijdonini uyg'otadi, odamiylik hissini kuchaytiradi"¹. Adabiyot ma'naviyat chirog'ini nurlantiruvchi muhim omildir. Shu ma'noda ijodi, faoliyati orqali yosh avlod kamoloti yo'lida xizmat qilgan, yangi o'zbek she'riyatidan munosib o'rin egallagan ijodkor Sadriddin Salim Buxoriy adabiy merosini badiiyat aspektida monografik tarzda o'rganish, she'riyatiga xos poetikani ochib berish yuzasidan ilmiy tadqiqotlarni yanada chuqurlashtirish zarurati mavjud.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi farmonlari, 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-son "Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2017-yil 13-sentabrdagi PQ-3271-son "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar

¹ Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To'ldirilgan ikkinchi nashri. – T.: "O'zbekiston", 2023. – B.248.

dasturi to‘g‘risida”, 2018-yil 5-apreldagi PQ-3652-son “O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2023-yil 25-dekabrda PQ-404-son “2024-2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Jahon adabiyotshunosligida badiiyatni o‘rganish doimiylik kasb etib keladi. Tadqiq etilayotgan ilmiy muammo yuzasidan izlanishlar ikki yo‘nalishda amalga oshirilgan. Birinchi yo‘nalish she‘rshunoslikka oid tadqiqotlarni o‘z ichiga oladi: jahon adabiyotshunosligida Arastu, Atoullloh Husayniy, Qays Roziy, Alisher Navoiy², V.Jirmunskiy, V.Vinogradov, M.Xrapchenko; o‘zbek adabiyotshunosligida Abdurauf Fitrat, O.Sharafiddinov, B.Sarimsoqov, N.Karimov, A.Rasulov, I.Haqqulov, N.Rahimjonov, Ulug‘bek Hamdam, N.Jabborov³ singari olimlar qator tadqiqot va maqolalarida badiiyat, ijodkor mahorati masalasini ilmiy jihatdan izohlab berdilar.

Keyingi yillarda Buxoro adabiy harakatchiligi vakillari ijodi badiiyatini tadqiq etish jarayoni jonlanib qoldi. G.Zoyirovaning “Samandar Vohidov she‘riyati poetikasi (janr, shakl va obraz)”, D.Nazarovanning “Jamol Kamol ijodi poetikasi”, N.Norovanning “Uslub va ijodkor mahorati (Usmon Qo‘chqor ijodi misolida)” va shu singari tadqiqotlarda muayyan ijodkor ijodi monografik tartibda tadqiq

² Арасту. Поэтика. Ахлоқи кабир. Риторика. –Т.: Янги аср авлоди, 2011. – 352 б.; Атоуллоҳ Хусайний. Бадоеъ ус-саноеъ – Т.: Адабиёт ва санъат, 1981. – 398 б.; Alisher Navoiy. Mezon ul-avzon. TAT. 10-jild. – Т.: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 2011. – В.543.

³ Жирмунский В.М. Теория литературы. Поэтика. Стилистика. – Л.: Наука, 1977. – 408 с.; Хализев В. Теория литературы. – М.: Высшая школа, 2006. – 288 с.; Веселовский А.Н. Историческая поэтика. Москва, Высшая школа, 1989. – 404 с.; М.Б.Храпченко. Творческая индивидуальности писателя и развитие литературы. – М.: Советский писатель, 1970. – 109 с.; Фитрат. Адабиёт қоидалари. Танланган асарлар. 4-жилд. – Т.: Маънавият, 2006. – 336 б.; Шарафиддинов О. Гўзаллик излаб. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1986; 140 б.; Саримсоқов Б. Бадийлик асослари ва мезонлари. – Т., 2004; – 252 б.; Каримов Н. XX аср ўзбек адабиёти тараққийнинг ўзига хос хусусиятлари ва миллий истиқлол мафқураси: Филол.фан.докт...дисс. – Т., 1993. – 54 б.; Расулов А. Услуб – истеъдод портрети. – Т.: Янги аср авлоди, 2013. – 244 б.; Иброҳим Ҳаққул. Тасаввуф ва шеърят. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1991. – 184 б.; Ҳаққулов И. Шахсият ва шеърят. – Т.: BROK CLASS SERVIS, 2014. –114 б.; Раҳимжонов Н. Мустақиллик даври ўзбек шеъряти. – Т.: Фан, 2007. – Б.21; Раҳимжонов Н. Истиқлол ва бугунги адабиёт. – Т.: Ўқитувчи НМИУ, 2012. – 328 б.; Ҳамдамов У. Бадий тафаккур тадрижи. – Т., 2002. Улуғбек Ҳамдам. Янги ўзбек шеъряти: – Т.: Адиб, 2012. –304 б.; Жабборов Н. Замон. Мезон. Шеърят. – Т.: Фафур Фулом номидаги НМУ, 2015. – 304 б.; Кўчқорова М. Бадий сўз ва руҳият манзаралари. – Т.: Мухаррир, 2011. – 232 б.; Ашурова Г.Н. Абдулла Орипов шеърятида анъана ва бадий маҳорат: Филол.фан.номз...дисс.. – Т., 2008; Давронова М. Ҳозирги ўзбек шеърятида индивидуал услуб поэтикаси (Усмон Азим, Иқбол Мирзо, Фахриёр, Абдували Кутбиддин шеъряти мисолида). Филол.фан.док. ... дисс. автореф. – Самарқанд, 2019. – 30 б.; Давлатова А. Абдулла Орипов шеърятида поэтик тафаккур тадрижи. Филология фанлари доктори (DSc) дисс. – Т., 2021. – 218 б.

etilgan⁴.

Ikkinchi yo‘nalish Sadridin Salim Buxoriy ijodiga bag‘ishlangan tadqiqotlar: bu borada ilk risola I.G‘aniyev va N.Afoqovalar tomonidan yaratilgan bo‘lib, “Shaxs va ijod” deb nomlangan. Risolada shoir shaxsi, ijodiga xos jihatlari, badiiyat masalasi haqida fikr boradi. Adabiyotshunos G‘.Murodov “Yorug‘lik odami” risolasining birinchi qismida shoir lirikasining g‘oyaviy-badiiy jihatlari, shoir va uning ijodiga xos ma‘naviy-falsafiy kamolotni tadqiq qilgan bo‘lsa, ikkinchi qismida shoir shaxsiga aloqador qator xususiyatlarni aytib, ma‘lum hayotiy lavhalar orqali fikrini dalillaydi. Navoiyshunos R.Vohidovning “Bir nosir-u uch shoir haqida topganlarim” nomli kitobidagi “Iymon va e‘tiqod – halol insonlar ziynatidir”, “Hikmatli dunyo – nurli ma‘vo”, “Zullisonaynlik – noyob fazilat” maqolalarida shoir she‘riyati, uning janriy, mavzular ko‘lami, zullisonayn shoir ekani, tarjimon sifatidagi mahorati haqida so‘z boradi. Shoirning ayoli yaratgan risolada shoir shaxsi, ijodxonasi bilan bog‘liq ma‘lumotlar bor. M.Maxmudovning “Sadridin Salim Buxoriyning aslyatdan tarjimalarida adekvatlik va ijodiylik” mavzusidagi monografik tadqiqotida ijodkorning mutarjimlik faoliyati tadqiq etilgan⁵. Shuningdek, Sadridin Salim Buxoriy ijodi haqida ilmiy va xotiramaqolalardan tarkib topgan “Sharif shahar shoiri” to‘plami nashr etildi. Bu jamoa to‘plamida N.Aminov, Tohir Malik, Mirzo Kenjabek, Orziqul Ergash, A.Jo‘rayev, G‘ulom Shomurod singari yozuvchi, shoirlarning; N.Komilov, A.Saidov, S.Azimov, Sultonmurod Olim, G‘ayrat Nek Murod, E.Ochilov va shu kabi olimlarning maqolalari bo‘lib, ularda ham talqin, ham tahlil, ayni damda, xotirlash ruhi ustuvor⁶. Shoir G‘ayrat Majid va Shodmon Sulaymonning maqolalarini⁷ ham alohida aytib o‘tish mumkin.

Dissertatsiyani yozish jarayonida nomlari zikr etilgan adabiyotshunoslarning tadqiqotlari e‘tiborga olingan. Tadqiqotimizda mazkur yo‘nalishda bajarilgan ishlardan farqli ravishda Sadridin Salim Buxoriy ijodining janriy tarkibi, mavzulari, ijodiga xos poetik xususiyatlar, zullisonaynlik an‘anasi va badiiy tarjimadagi mahorat masalalari monografik tarzda maxsus tadqiq qilingan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Buxoro davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “Yozuvchi individual uslubi, mahorati xususiyatlarini ochish va umumlashtirish” (2021-2024-yy.) yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

⁴ Зойирова Г. Самандар Воҳидов шеърини поэтикаси (жанр, шакл ва образ): Филол.фанлари бўйича фалсафа док. (PhD) дисс.автореф. – Т., 2021; Назарова Д. Жамол Камол ижоди поэтикаси: Филол.фанлари бўйича фалсафа док.(PhD) дисс.автореф. – Т., 2021; Норова Н. Услуб ва ижодкор маҳорати (Усмон Кўчкор ижоди мисолида): Филол.фанлари бўйича фалсафа док. (PhD) дисс.автореф. – Т., 2022.

⁵ Ганиев И., Афоқова Н. Шахс ва ижод. – Бухоро: “Бухоро”, 1995. – 56 б.; Murodov G‘. Yorug‘lik odami. – Buxoro: Durdona, 2016. – 72 б.; Воҳидов Р. Бир носир уш шоир хақида топганларим. – Бухоро: Бухоро давлат университети нашриёти, 2003. – Б.62-83; Салимова М. Ёруғлик одами. Садриддин Салим Бухорий хотираси. – Т.: Наврўз, 2019. – 164 б.; Махмудова М. Садриддин Салим Бухорийнинг аслиятдан таржималарида адекватлик ва ижодийлик.): Фал.фан.док.(PhD) дисс... автореф. – Тошкент, 2022.

⁶ Шариф шаҳар шоири. Мақолалар тўплами. – Бухоро: Дурдона, 2016. – 264 б.

⁷ Садриддин Салим Бухорий. Танланган асарлар. – Т.: “Sharq”, 2011. – 624 б.

Tadqiqotning maqsadi buxorolik shoir, tarjimon, olim Sadridin Salim Buxoriy ijodining janriy tarkibi, mavzu-mundariyasi, shakl va mazmun birligi, vazn xususiyatlari, badiiy tasvir vositalarini qo‘llashdagi mahoratini yoritishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari Sadridin Salim Buxoriy badiiy ijodiga xos xususiyatlarni, shoir poetik dunyoqarashining tadrijini, zullisonaynlik va tarjimonlikdagi mahoratini ochib berish;

shoir she‘riyatining mavzu-mundarijasini, obraz va obrazlilik masalasini, adib badialari misolida shakl va mazmunga xos jihatlarni tadqiq etish;

Sadridin Salim Buxoriy she‘riyatining janriy tarkibi, she‘riy tizimlar vaznlaridan, qofiyadan foydalanishdagi o‘ziga xosliklarini ko‘rsatib berish;

shoirning tabiat va joy tasviri orqali yuzaga keladigan peyzajni, badiiy san‘atlarni o‘rinli qo‘llash orqali she‘r badiiyatini oshirishdagi mohirligini tekshirishdan iborat.

Tadqiqotning obyekti sifatida Sadridin Salim Buxoriyning “Oq qushim”, “Oq qaldirg‘och”, “Erka qushim”, “Yorug‘lik odami”, “Ro‘molcha”, “Buxoroga Buxoro keldi”, “Hikmatdir dunyo”, “Tanlangan asarlar” to‘plamlari tanlangan.

Tadqiqotning predmetini Sadridin Salim Buxoriy ijodi badiiyati tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada analitik, tarixiy-qiyosiy, statistik, biografik, germevtik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Sadridin Salim Buxoriy ijodidagi tadrij, poetik dunyoqarashining shakllanishiga ta‘sir etgan omillar, ular orqali shoir she‘riyatida xalqchillik kuchaygani, mumtoz she‘riyatga xos an‘analarni davom ettirish orqali tasavvufona g‘oyalarni ilgari surgani aniqlangan;

shoirning ikki tilda ham mukammal g‘azallar, she‘rlar; Jaloliddin Rumi, Mashrab g‘azallariga tatabbu‘ bitish bilan zullisonaynlik an‘anasini davom ettirganligi, dunyo adabiyoti namunalaridan tarjima qilish bilan bir qatorda o‘z asarlarini ikkinchi tilga o‘g‘irgandagi mohirligi, she‘riyatiga xos mavzular olami, u yaratgan obrazlar tizimi Buxoro va buxoroliklar bilan bog‘liq ekani, daraxt timsoli misolida obraz yaratish mahorati oydinlashtirilgan;

adib badialarida shakl va mazmun birligi muammo, mavzu, an‘ana, g‘oya singari mazmunga daxldor; ritm, sujet, konflikt, kompozitsiya kabi shaklga xos jihatlardan orqali yoritilgan; shoir har bandi to‘rt misrali she‘rlar bitgani, g‘azal, marsiya, ruboiy, to‘rtlik kabi janrlarga murojaat qilgani asoslangan;

Sadridin Salim Buxoriy she‘riyatida barmoq she‘riy tizimining sodda va qo‘shma vaznlari yetakchi ekani, aruz she‘riy tizimiga xos vaznlar ham uchragani holda erkin she‘riy tizimdan foydalanmagani; she‘riyatida qofiyani, badiiy tasvir vositalarini qo‘llashda muayyan izchillik mavjudligi kabilar an‘anaviylik, vorisiylik va novatorlik kesimida yoritilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari. Sadridin Salim Buxoriy ijodi ko‘magida she‘riyatda shoir shaxsi, she‘rga munosabat masalasining yoritilishi, avtobiografik

she'rlarga xoslikni ochib berish, zullisonaynlik an'anasi, tarjimonlik mahoratiga doir nazariy qarashlar orqali adabiyotshunoslikda shu boradagi fikrlar nazariy jihatdan boyitilgan;

shoir she'riyatiga xos mavzular ko'lamini, obraz va obrazlilikning badiiyatdagi o'rnini ko'rsatib berish orqali "mavzu" tushunchasining, obrazga bo'g'liq jihatlarning bir ijod misolida yoritilishiga erishilgan;

tadqiqotda shakl va mazmun birligi, shoir ijodiga xos janr, vazn, qofiya; badiiy tasvir vositalarini qo'llashdagi mahorat yuzasidan muhim xulosalar ko'rsatib berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi muammoning aniq qo'yilganligi, olimlarning nazariy fikrlariga tayanilganligi, tadqiqotda zamonaviy adabiyotshunoslik yutuqlaridan kelib chiqqan holda chiqarilgan xulosalarning analitik, tarixiy-qiyosiy, statistik, biografik, germeneytik tahlil usullari orqali dalillanganligi bilan belgilanadi; nazariy fikr va natijalarning amaliyotda joriy etilganligi, olingan xulosalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi, mavzuning jahon adabiyotshunosligining ustuvor konsepsiyalari asosida o'rganilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati zamonaviy o'zbek she'riyati badiiyatini tahlil qilishda, badiyalarda shakl va mazmun birligini tadqiq etishda, ma'lum shoir ijodiga xos obrazlar tizimi, janr, vazn, qofiya, badiiy tasvir vositalari masalasini o'rganishda o'ziga xos nazariy ahamiyat kasb etishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishda nazariy umumlashma va tahlillardan "Adabiyotshunoslik nazariyasi", "Yangi o'zbek adabiyoti", "Istiqlol davri o'zbek adabiyoti", "Hozirgi adabiy jarayon", "Buxoro adabiy harakatchiligi" fanlaridan ta'lim tizimining barcha bosqichlari talabalariga dars mashg'ulotlari olib borishda, shuningdek, bu fanlar bo'yicha o'quv qo'llanma, darslik, majmua, atamalar lug'ati yaratishda, ommaviy axborot vositalarida o'zbek she'riyatini targ'ib hamda tashviq qilishda atroflicha foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Sadriddin Salim Buxoriy ijodi badiiyatiga xos xususiyatlarni aniqlash jarayonida erishilgan ilmiy natijalar asosida:

Sadriddin Salim Buxoriy ijodidagi tadrij, poetik dunyoqarashining shakllanishiga ta'sir etgan omillar, ular orqali shoir she'riyatida xalqchilik kuchaygani, mumtoz she'riyatga xos an'analarni davom ettirish orqali tasavvufona g'oyalarga oid ilmiy xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida 2021-2023-yillarda bajarilgan IZ-2021020813. "Alisher Navoiy ijodining xorijda o'rganilishi va targ'iboti asosida ko'p tilli multimedia to'plamini yaratish" mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2024-yil 24-oktabrdagi № 04/1-3011-raqamli ma'lumotnomasi). Natijada o'zbek she'riyatining janrlar tizimi, an'ana, vorisiylik, novatorlik masalalari, tasavvufona talqinlar bo'yicha mazmunini boyitishga erishilgan.

shoirning ikki tilda ham mukammal gʻazallar, sheʼrlar; Jaloliddin Rumiy, Mashrab gʻazallariga tatabbuʼ bitish bilan zullisonaynlik anʼanasini davom ettirganligi, dunyo adabiyoti namunalaridan tarjima qilish bilan bir qatorda oʻz asarlarini ikkinchi tilga oʻgirgandagi mohirligi, sheʼriyatiga xos mavzular olami, u yaratgan obrazlar tizimi Buxoro va buxoroliklar bilan bogʻliq ekani, daraxt timsoli misolida obraz yaratish mahorati ilmiy-nazariy qarashlardan FA-F1-005 raqamli “Qoraqalpoq folklorshunosligi va adabiyotshunosligi tarixini tadqiq etish” (2017-2020-yy.) (Oʻzbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpogʻiston boʻlimi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutining 2023-yil 22-noyabrdagi 458/1-son maʼlumotnomasi) mavzusidagi fundamental ilmiy loyihani bajarishda foydalanilgan. Natijada oʻzbek sheʼriyati badiiyati masalalari boʻyicha loyihada koʻzda tutilgan maqsadning takomillashuvini taʼminlashga erishilgan.

adib badialarida shakl va mazmun birligi muammo, mavzu, anʼana, gʻoya singari mazmunga daxldor; ritm, sujet, konflikt, kompozitsiya kabi shaklga xos jihatlar orqali yoritilgan; shoir har bandi toʻrt misrali sheʼrlar bitgani, gʻazal, marsiya, ruboiy, toʻrtlik kabi janrlarga murojaatlardan Buxoro viloyat teleradiokompaniyasining “Assalom, Buxoro” va “Najot bilimda” (Buxoro viloyat teleradiokompaniyasining 2023-yil 9-noyabrdagi 02-09-312-son maʼlumotnomasi) koʻrsatuvlari hamda eshittirishlari ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan. Natijada ushbu telekoʻrsatuv hamda eshittirishlar uchun tayyorlangan materiallarning mazmuni yanada rivojlantirilib, ilmiy dalillarga boy boʻlishiga, ilmiy-ommabopligini taʼminlashga erishilgan.

Sadridin Salim Buxoriy sheʼriyatida barmoq sheʼriy tizimining sodda va murakkab vaznlari yetakchi ekani, aruz sheʼriy tizimiga xos vaznlar ham uchragani holda erkin sheʼriy tizimdan foydalanmagani; sheʼriyatida qofiyani, badiiy tasvir vositalarini qoʻllashda muayyan izchillik mavjudligi kabilar anʼanaviylik, vorisiylik va novatorlik kesimida bagʻishlangan talqinlardan Oʻzbekiston Yozuvchilar uyushmasi Buxoro viloyati boʻlimi huzuridagi “Nilufar” adabiy toʻgaragi (Oʻzbekiston Yozuvchilar uyushmasi Buxoro viloyati boʻlimining 2023-yil 10-oktyabrdagi 40-son maʼlumotnomasi). Natijada adabiy toʻgaraklar faoliyati, maʼnaviy-maʼrifiy tadbirlar va ijodiy kechalar mavzu koʻlami kengayishi taʼminlangan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 8 ta ilmiy-amaliy anjumanda, shu jumladan, 2 ta xalqaro, 6 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida aprobatsiyadan oʻtkazilgan.

Tadqiqot natijalarining eʼlon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi boʻyicha 16 ta ilmiy ish, Oʻzbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta ilmiy maqola, ulardan 3 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Tadqiqotning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar roʻyxatidan tashkil topgan boʻlib, umumiy hajmi 139 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, o‘rganilganlik darajasi, maqsad va vazifalari, obykti, predmeti, tadqiqot usullari, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy qilinishi, chop etilgan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi haqida ma‘lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning **“Sadriddin Salim Buxoriy ijodining ko‘lami va muhim qirralari”** deb nomlangan birinchi bobi ikki fasldan iborat. Birinchi fasl **“Ijodkorning zamonaviy o‘zbek adabiyotida tutgan o‘rni”** deb nomlangan bo‘lib, unda shoirning hayoti, ijod yo‘li, yangi o‘zbek she‘riyatida tutgan o‘rni, ijodiga folklor va tasavvuf she‘riyatining ta‘siri xususida fikr boradi. Bu faslda **“badiiyat”** va **“poetika”** atamasi, ular bilan bo‘g‘liq jihatlar ham izohlangan.

Shoir, olim, tarjimon, publitsist, pedagog hisoblanmish Sadriddin Salim Buxoriy 13 she‘riy to‘plam; qator tarjimalar; bir necha video va telefilmlar ssenariysi; 20ga yaqin tarixiy-ma‘rifiy risolalar; 350 ga yaqin ilmiy, ilmiy-ommabop, publitsistik maqolalar muallifidir. U Usmon Azim, Matnazar Abdulhakim, Yo‘ldosh Eshbek, Shavkat Rahmon, Xurshid Davron, Usmon Qo‘chqor, Sa‘dulla Hakim kabi ijodkorlarga davrdosh shoir sifatida o‘zbek she‘riyatiga kirib keldi. Ijodda, iste‘dodda poytaxtda yashab ijod qilgan tengdosh shoirlardan aslo kam emas edi. Uch shoirning bir davrda yaratgan bir mavzudagi she‘rlarini chog‘ishtirish orqali fikrimizni dalillash mumkin:

She‘riyat, biz seni aldadik,
ko‘pincha avradik, xo‘rladik.
Vaslingga yetishdik nihoyat,
qizargan ko‘zlaring ko‘rmadik⁸.

Shavkat Rahmon she‘riyatni obrazlantirar ekan, unga adolatsizlik qilinganidan, yolg‘onga xizmatkor qilib qo‘yilganidan o‘kinadi. Hatto o‘zi ham zulm qilganiga iqror bo‘ladi. Bu she‘riyatni ilohiy go‘zallik timsoli sifatida anglash, so‘zga muhabbatning o‘ziga xos usulda aks ettirilishi edi. Fikrdagi quvvat qofiyadagi aybni berkita olgan. Usmon Azim ham she‘riyat haqida yozar ekan, uni **“ko‘zlari chaqmoq tulpor”**ga qiyoslaydi. Bu ilhom parisining uchar otga qiyoslanishi bilan bog‘liq. Shoirning fikricha, she‘riyat – suvliq lablarin yirtgan, yollari bayroq tulpor”. Suvliq otning erkini jilovlash, uni buysundirish uchun zarurligi anglansa, she‘rxon otning lablari nega yirtilganini idrok etadi.

O‘jar tulpor, tong tulpor,
Yo‘llari osmon tulpor.
Parvozingga kuch bo‘lsin,
Berayinmi jon, tulpor?!⁹

Usmon Azim she‘riyat qadrini yuksak baholar ekan, u uchun jon berishga ham

⁸ Шавкат Раҳмон. Абдиёт оралаб. – Т.: Мовароуннахр, 2012. – Б.79.

⁹ Усмон Азим. Сайланма. Шеърлар. – Т.: “Шарк” NМК, 1995. – Б.12.

tayyor turadi.

“Kim she’r yozsa jabr qilib jonga,
Mahshargacha muqaddas Kalom –
Beta’mani burkaydi shonga,
Ta’magirni etadi badnom”¹⁰.

Sadriddin Salim Buxoriy qalamiga mansub bu satrlarda so‘zning, she’rning muqaddasligi, unga ta’ma bilan yondashib bo‘lmasligi ta’kidlangan. Aksariyat davrdosh shoirlaridan farqli o‘laroq u so‘zning, she’rning qiyomatgacha borligini sho‘ro davridayoq ayta oldi. Ohangi ravon, qofiyasi to‘q bo‘lgan bu misralar ham jur’atli, ham salohiyatli shoir qalamiga mansubligi ayon.

Uch she’r ham iste’dodli shoirlar qalamiga mansub, badiiyati pishiq, g‘oyasi yuksak. Ko‘rinadiki, Sadriddin Salim Buxoriy ham g‘oyaviyligi, ham badiiyati jihatidan yetuk asarlar yaratib, o‘ziga davrdosh taniqli shoirlar bilan bellasha oldi. U el dardini jasorat bilan she’rga sola olgan, asarlari yosh avlod kamoloti yo‘lida asqotgan, asrdan asrga ko‘chib o‘ta olgan ijodkor sifatida zamonaviy o‘zbek adabiyotidan munosib o‘rin egallay bildi.

Sadriddin Salim Buxoriy ijodida ikki omilning ta’sirini ko‘rish mumkin. 1. Folklorning ta’siri. Shoir nafaqat o‘zbek va tojik folklorini, Sharq, qolaversa, G‘arb folklorini ham atroflicha o‘rgangan ijodkorlardan sanaladi. 2. Mumtoz adabiyot ta’siri. O‘zbek mumtoz adabiyoti, ayni damda, Sharq mumtoz adabiyotini tinimsiz mutolaa qilgan ijodkor ma’naviyati ulardagi ulug‘vor ma’naviy-ma’rifiy olamdan saboq oldi. Bu saboq ijodkor fe’l-atvoriga singib ketar ekan, ruhiyati orqali ijodida akslandi.

Har bir shoir ijodida folklorga munosabat o‘ziga xos xususiyatlari bilan namoyon bo‘ladi. So‘z san’atkorlari o‘z dunyoqarashi, uslubi, folklorini his qilishi va undan foydalanishdan ko‘zlagan maqsadiga qarab xalq og‘zaki ijodi materialini yoki janrini tanlaydi va uning badiiy shakli, sujeti, motivi, obrazi, bo‘yoqdor tilidan foydalanadi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, Sadriddin Salim Buxoriy ijodida folklorga munosabat alohida xususiyat kasb etadi.

Sadriddin Salim Buxoriyning ma’naviy-ruhiy kamolotini ta’minlagan naqshbandiya ta’limoti uning badiiy ijodida ham o‘z izini qoldirdi. Shoirning qator she’rlarida naqshbandiya tariqati ta’limoti ta’sirini sezish mumkin. Ayrim she’rlarida malomatiylik g‘oyalari uchrashini ta’kidlash lozim.

Gunohim ko‘p, shundan qaddi kamonman,
Tavba etmay yurayapman hamonman.
Ayo do‘stlar, g‘aflatdaman, vo darig‘!
Yomonligin bilmaydigan yomonman¹¹.

Bu tariqatda malomat ta’na, tanqid yo kamsitish emas, balki jamiyatdagi nuqsonlarni, insonlarga xos gunoh va ayblarni o‘zida mavjud kamchilik, gunoh va ayblar tarzida ifodalab, o‘zini malomat qilish orqali ham poklanish, ham

¹⁰ Sadriddin Salim Buxoriy. Tanlangan asarlar. – Toshkent: “Sharq”, 2021. – B.58.

¹¹ Садриддин Салим Бухорий. Дурдоналар. – Бухоро: “Бухоро”, 2005. – Б.8.

o'quvchiga saboq berish demakdir. Shoir malomat orqali o'zini ayblash natijasida tazarruga yo'l ochishni, inson taqdiri va muammolariga tomoshabin ko'zi bilan qaramaslikni maqsad qiladi. Bunday she'rlar shoir she'riyatida tasavvufona g'oyalar ifodalanganini ko'rsatadi.

Birinchi bobning ikkinchi fasli "Zullisonayn shoir va salohiyatli tarjimon" deb nomlangan. Bu faslda shoirning tojik tilida ham ijod qilgani, tarjima bilan shug'ullangani, bu boradagi mahorati ochib berilgan. XX asrning ikkinchi yarmiga kelib zullisonaynlik an'anasi susaydi. Sadridin Salim Buxoriy ayni shu yillarda ushbu an'anani saqlab qolishga intildi. Shoirning tojik tilida bitilgan yuzga yaqin she'ri bor. Uning "Ayo diltang, dunyoyi tu tang ast", "Har nahor in nahori man ast...", "Falak dar falak menozad", "Mulho ashk, ashkho mul shud", "Ey dil, zi xobi g'aflat baro", "Gulho xor shud ba peshi tu, ey Gull!..", "Devori bemush kujost?" kabi she'rlari fikrimizni dalillaydi. Shoir tojik tilida ham badiiyati baland she'rlar yoza oldi. Uning bu she'rlari folklordan oziqlangani, mazmun mohiyatiga ko'ra saboqdor ekani, dolzarb mavzularda bitilgani bilan ahamiyatlidir:

Har nafas oyad ba go'sham in sado:

Kisti tu, ayo odami tanho?!¹²

Shoirning "Sen kimsan, tanho odam" satridan bir necha ma'noni anglash mumkin. Agar satrda kinoya bor deb hisoblasak, o'zini yagona deb hisoblayotgan insonga "o'zing kimsan", ya'ni "hech kimsan" deyish orqali unga saboq berilmoqda. Satrda kinoya bo'lmasa, tanho, yagona odam bo'lib turgan lirik qahramonning kimligini idrok etish istagi orqali insonning anglanishi murakkab mavjudot ekaniga ishora bor. Agar satrdagi "tanho" so'zi "yolg'iz, kimsasiz" ma'nosida kelgan bo'lsa, achinish yoki inson mohiyatini anglashga urinish holati ifoda etilgan bo'ladi. Ko'rinadiki, shoir satrni shunday tizganki, ko'pma'nolilik yuzaga kelgan. Bunday satrlar Sadridin Salim Buxoriyning ikki tilda ham mahorat bilan she'r bitganini asoslaydi. Shoir tojik tilida ijod qilar ekan, Jaloliddin Rumi va Mashrab she'riga tatabbu' bog'ladi. Rumiyning bir misrasini keltirish bilan boshlangan "Dorad" radifli g'azali tatabbu'dir. Jaloliddin Rumiyning g'azali hazaji musammani solim vaznida yaratilgan bo'lib, Sadridin Salim Buxoriy ham shu vaznni saqlab qolgan. Ikki shoir ham muqayyad qofiya qo'llagan, raviysi "r", ya'ni bir xil. Agar Jaloliddin Rumi g'azalning oltinchi baytida chor dar chor badiiy san'atidan, zulqofiyatayndan foydalangan bo'lsa, Sadridin Salim Buxoriy har bir baytda shu yo'ldan borgan va Rumi g'azali badiiyati darajasini saqlab qola olgan. Chor dar chor san'atini izohlashni lozim topdik. "Chor dar chor (to'rtga to'rt) – she'riyat tarixida kam uchraydigan san'at. ...G'azal yoki qasida baytlaridagi har ikki misra bir xil vazndagi to'rt qismdan iborat bo'ladi (to'rtga to'rt)¹³. Olimning aytishicha, bu istiloh faqat Zayniddin Vosifiyning "Badoye' ul-vaqoye" asarida tilga olingan, bu san'atni yaratish naqadar murakkab ekanligi ta'kidlangan.

Sadridin Salim Buxoriy o'z g'azallarida vaznni rost keltirish uchun vasl,

¹² Sadridin Salim Buxoriy. Tanlangan asarlar. – T.: "Sharq" NMAK, 2021. – B.245.

¹³ Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Т.: "Ўзбекистон", 2014. – Б.258-259.

imola singari fonetik hodisalardan o‘rinli foydalangan. Shoirning tojik tilidagi she‘rlari ham aruz va barmoq she‘riy tizimi vaznlarida bitilgan. Aruzda yozilgan aksariyat she‘rlari g‘azal janriga mansub. Zullisonayn shoirning ikki tildagi asarlari ham badiiyati jihatidan birday maqbul. Ammo o‘zbek tilidagi ijodi miqdoran salmoqdor.

Sadriddin Salim Buxoriy amalga oshirgan tarjimalarni qaysi tildan o‘giraniga ko‘ra: 1) fors-tojik tilidan o‘zbek tiliga; 2) o‘zbek tilidan tojik tiliga; 3) nemis tilidan o‘zbek tiliga o‘girilgan tarjimalar sifatida tasnif qilish mumkin. Bu tarjimalar bevosita amalga oshirilgani bilan ahamiyatlidir.

Tarjimon sifatida nemis shoiri Gyotening “G‘arb-u Sharq devoni”idan tashqari Karl Mikelning “Jannat darvozasi ro‘parasida” she‘rini, Eva Shtrittamatter qalamiga mansub “Yakkalik”, “Vaqt”, “So‘roq”, “Boshpana”, “Yo‘qotilgan yil” to‘rtliklarini o‘zbekchalashtirgan. U nemis tilidan bevosita tarjima qilgani ma‘lum. Bundan tashqari fors-tojik tilidan o‘zbek tiliga, aksincha, o‘zbek tilidan fors-tojik tiliga to‘rtliklarni o‘girgani tarjimachilik faoliyatida alohidalik kasb etadi. Aksariyat mutarjimlardan farqli o‘laroq Sadriddin Salim Buxoriy o‘z she‘rlari tarjimoni hamdir. Sadriddin Ayniy va Chingiz Aytmatov o‘z asarlari tarjimoni ekani hammamizga ma‘lum. Bunday tarjimani adabiyotshunos S.Azimov avtotarjima deb hisoblaydi. Shunga ko‘ra, Sadriddin Salim Buxoriy tarjimalari ikki xil:

1. Avtotarjima.

2. O‘zga shoirlar asarlari tarjimasi.

Fors-tojik tilidan tarjima, asosan, pirlar ijodi bilan bog‘liq. Tarjimon Shayx Abu Said Abulxayr, Xoja Abdulxoliq G‘ijduvoni, Xoja Ali ar-Romitaniy, Shayx Sayfiddin Boxarziy, Xoja Bahouddin Naqshbandlarning to‘rtliklarini o‘zbek tilida kitobxoniga taqdim etgan. Tarjima uchun tanlangan barcha she‘rlar mavzusi shoir ko‘ngliga yaqin. O‘zga shoirlar she‘rlarining asli “Ikki yuz yetmish yetti pir” kitobida tarjimasi bilan, “Durdonalar”, “Hikmatdir dunyo” kitobida faqat tarjimasi berilgan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Sadriddin Salim Buxoriy ijodida shakl va mazmun uyg‘unligi, obrazlar tizimi”** deb nomlangan bo‘lib, ikki fasldan tashkil topgan. Dastlabki fasl “Shoir she‘riyatining mavzu va obrazlar olami” deb atalgan. Bu faslda shoir ijodi mavzular ko‘lami hamda obrazlar olami haqida fikr yuritilgan. Sadriddin Salim Buxoriy she‘riyatini nazardan o‘tkazib, mavzu jihatdan an‘anaviylik bilan bir qatorda o‘ziga xoslik kasb etishini ko‘rish mumkin. Vatan, ona, muhabbat, do‘stlik, imon, hayo, sadoqat, bolalik kabilar shoir ijodi mavzu ko‘lamini belgilaydi. Shoir she‘rlarida Vatan mavzusi Buxoro – O‘zbekiston – dunyo tarzidagi tadrij asosida ifoda etildi. Uning she‘rlarida yurtning o‘tmishi, buguni, istiqboli, orzu-umidlari turli ranglarda, shoirning o‘z ovozi yangraydi. Taniqli olim N.Komilov yozadi: “Biz bu odamning she‘rlari orqali Buxoroni yangidan taniydigan bo‘ldik”¹⁴. Buxoro mavzusi Sadriddin Salim Buxoriyning

¹⁴ Шариф шаҳар шоири (Таникли шоир ва таржимон, тасаввуфшунос олим Садриддин Салим Бухорий ҳаёти ҳамда илмий-ижодий фаолиятига қизгилар). Мақолалар тўплами. – Бухоро: Дурдона, 2016. – Б.12.

butun ijodi uchun leytmotiv bo‘lib xizmat qilgan. Ayni shu xususiyat Sadridin Salim Buxoriyni shoir sifatida boshqalardan farqlaydigan jihat hamdir.

Badiiy adabiyotning yuzaga kelishida badiiylik asos, obraz esa badiiylikning yuzaga kelishi uchun eng muhim vositadir. Obrazlilik obrazni yuzaga keltiradi. “Badiiylikning mohiyatini belgilovchi narsa obraz va obrazlilikdir. Obraz esa borliqning, inson ruhiyatining muayyan shakllarini tasvirlash va ifodalashdan iborat”¹⁵. Sadridin Salim Buxoriy yaratgan obrazlar ichida Buxoro obrazi yetakchi obraz sanaladi. Uning 1988-yilda yozilgan “Buxoroyi sharif” she’ri ham Buxoro haqida, shoirning bunday she’rlari ko‘p. Sababi: 1. Dunyo bilgan yetti sharif shahardan biri ekanini hammaga anglatish, u ziyoratga munosib tuproqligidan faxrlanish tuyg‘usi.

2. Bu tuproq sharif ekanini uni toptayotgan har bir nokasga uqtirish, uni asrash yo‘lida fidoyilik, unga darddoshlik.

O‘zining shoh asarlarini
Aylab qo‘yib yer bilan yakson –
Sen!
Ne uchun kelmayapsan, Sen –
Ka‘basini yo‘qotgan inson?!¹⁶

Shoir she’riyatida alohida o‘rin tutadigan obrazlardan yana biri shoir obrazidir. Sadridin Salim Buxoriy shoirlikni o‘ta ulug‘, o‘ta mas‘uliyatli taqdir deb bildi va bunga butun umri, ijodi davomida amal qilib yashadi. Uning “Shoir”, “Xat”, “Amir Abdulahad...”, “Shoirlik noni”, “Hayrat Buxoriy”, “Shoir rafiqasi so‘zi”, “Sharpa va shoir”, “Ahmadi Bexat” singari she’rlarida chin shoir obrazi bor. Ko‘p qo‘llangan obrazlardan yana biri daraxt bo‘lib, shoir bu obraz orqali Vatan, el, inson bilan bog‘liq fikrlarini ifoda etadi.

Agar tut ham pilla deb
Kesib qurtga bersaydi
Odamning tillarini...

Bu she’r 1989-yilda dunyoga kelgan. Shoir bu pallada ozodlikni orzu qilib, erk uchun jonini tikkan shoirlar bilan safdosh, Buxoro obidalarini himoya qilib, sho‘ro matbuotida keskin maqolalar e‘lon qilgandi. Tut shoir uchun taraqqiyoti qayta-qayta qirqilgan o‘zbekning timsoli edi. Shoir daraxt, jumladan, tut daraxti obrazi orqali o‘zining dil dardlarini, avvalo, el og‘riqlarini ifodalaydi. Bu daraxtning inson hayotidagi o‘rni, ahamiyatiga bog‘liq. Ayni damda, poetik ma‘no daraxtning tabiatidan kelib chiqishini anglash mumkin. Sadridin Salim Buxoriy daraxtga, ayniqsa, tutga ko‘p bor murojaat qilgan, tut obrazi orqali o‘z poetik maqsadlarini she’rxoniga anglatgan shoir sifatida o‘zbek she’riyatidan munosib o‘rin oldi.

Ikkinchi bobning “Adib badialarida shakl va mazmun birligi” nomli ikkinchi faslida adib badialari shakl va mazmun jihatidan tahlilga tortilgan. O‘zbek badiachiligida Sadridin Salim Buxoriy badialari alohida ajralib turadi. “Sharif

¹⁵ Саримсоков Б. Бадийлик асослари ва мезонлари. – Т., 2004. – Б.21.

¹⁶ Садриддин Салим Бухорий. Бухорога Бухоро келди. – Т.: Ма’навият, 1999. – Б.16.

manzaralar” nomi bilan keltirilgan asar badialar turkumidan iborat. Unda nosir, shoir, publitsist, mutasavvuf olim fikri va tuyg‘ulari uyg‘unlashgan bo‘lib, sharif shaharni jonidan ortiq ko‘rgan mutafakkir insonning nazari yorqin ko‘zga tashlanadi. Buxoroni, buxoroliklarni ulug‘lash uchun yaratilgan badialar nasriy shaklda yozilgan bo‘lib, unda she‘riy qismlar ham uchraydi. Adabiyotshunos D.Quronov dunyo adabiyotshunosligi mazmun va shakl unsurlari haqida har xil tasnif keltirganini aytib, L.Timofeev, Shepilova, T.Boboev, V.Kojinov kabi adabiyotshunoslarning tasniflariga to‘xtalib o‘tadi. Bu tasniflarning barchasi nisbiylik kasb etishini, aslida bir butun bo‘lgan ikki tushunchani ajratib bo‘lmasligini tushuntirib, o‘z tasnifini keltiradi: “Bizningcha, quyidagicha tasniflash to‘g‘ri bo‘ladi: problema, tema, tendensiya, g‘oya – mazmun unsurlari; til, ritm, obrazlar sistemasi, sujet, konflikt, kompozitsiya – shakl unsurlari”¹⁷. Bu tasnifni ma‘qullagan holda farqli bir jihatni: obrazning ham shakl, ham mazmun ifodalashini ta‘kidlash lozim. Ayni damda, shartli bo‘linish bor joyda xulosalar ham shartlilik kasb etishini unutmazlik zarur. Shu tasnif asosida yozuvchi Sadridin Salim Buxoriyning “Sharif manzaralar” asarini tadqiq qilish adabiyotshunoslik uchun ma‘lum xulosalar beradi. Ayni damda, ijodkor shaxsini, asarlari badiiyatini tadqiq qilishning ma‘lum imkoniyatlarini yaratadi.

Dastlab badianing mazmuni haqida fikr yuritilsa, problema, ya‘ni muammodan boshlash lozim. O‘n qismdan iborat, 1980-2009-yillar davomida yaratilgan badialar turkumida sharif shahar misolida jamiyatda mavjud o‘nlab muammolar olib chiqilgan. Asosiy muammo sifatida xotira masalasi ko‘tarilgan. XX asr o‘zbek adabiyotshunosligi shakl va mazmun birligiga alohida e‘tibor berar ekan, asar mavzusiga ham diqqat qaratdi. Yozuvchi va shoir birlashib yaratilgan bu asarning yetakchi mavzusi umr bilan bog‘liq. Nafaqat inson, balki obidalar umri bilan bog‘liq jihatlar mavzu qilib olinar ekan, qator mavzular asosiy mavzuga keltirib tutashtiriladi. Umr mavzusi Vatan, inson, vaqt, baxt, kamolot mavzularini birlashtirgan. Mavzular mohiyatini ochib berish davomida muallif kitobxonga asar sarlavhasining tanlanish sababini izohlab beradi. Bu mavzular tizimi “Sharif manzaralar” turkum badiasi tarkibidagi har bir qismda mavjud. Turkum badiani shartli ravishda kirish va to‘qqiz mustaqil asardan tashkil topgan bir butun badia deyish mumkin, ularni Buxoro va buxoroliklar mavzusi birlashtirib turibdi.

Minorayi Kalon umri mavzusida yaratilgan badiada erk g‘oyasi ilgari surilgan. Minorayi Kalon umri mohiyatini yozuvchi Azon bilan bog‘laydi. Mahorati shundaki, shunchaki aytib qo‘ya qolmaydi, daraxt, laylak, kuy, Azon, osmon detallarini tadrijiy tarzda joylashtiradi. Adabiyotshunos D.Quronov badiiy asar mazmuniga ta‘sir qiladigan muhim omillardan biri ijodkor dunyoqarashi ekanini yozadi¹⁸. Badialar muallifining dunyoqarashi tasavvuf adabiyoti mohiyatiga monand bo‘lib, asar Allohni tanigan, pokdomon, xoksor, inson ko‘nglini Ka‘ba bilgan adibning tafakkuri hosilasi edi. “Sharif manzaralar” asarini bir asrdan

¹⁷ Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – T.: Akademnashr, 2018. – B.44.

¹⁸ Shu manba. – T.: Akademnashr, 2018. – B.157.

ikkinchi asrga olib o'tgan boqiy g'oyalar quyidagilar: 1. Vatanparvarlik. 2. Erkparvarlik. 3. Insonparvarlik. 4. Ilmparvarlik. To'rt g'oyani ezgulik g'oyasi birlashtiradiki, bu asar mutolaasi davomida oydinlashadi. Badiialarda bosh obraz Buxoro va buxoroliklar ekani ma'lum. Badianavis kitobxonni Buxoro bo'ylab kezdirar ekan, obidalarni obraz sifatida namoyon qiladi. "Sharif manzaralar" asarida Buxoro o'zining qismlari hisoblangan ma'lum o'rin-joylar, obidalar qiyofasida ko'rinadi. Ilk badiada o'rin-joy sifatida Labi Hovuz, Telpakfuroshlar Toqisi; obidalar Minorayi Kalon, Ismoil Somoniy tilga olingan. Adib bu obrazlar orqali yosh avlod kam biladigan ma'lumotlarni keltiradi. Adib Buxoroni ta'riflash uchun buxoroliklar obraziga murojaat qiladi. Bu bilan ma'lum zamin undagi insonlar tabiatini belgilashini, insonlar o'zlari unib-o'sgan tuproqqa monand bo'lishlarini, ayni damda, ulug'lar o'zlari tug'ilgan tuproq sharafini ko'tarishlari mumkinligini she'rxonga anglatadi. Badiialarni nazardan o'tkazib, Buxoro va buxoroliklar obrazini quyidagicha tasnifladik: 1. Buxoro obrazi: a) o'rin-joy obrazi; b) obida obrazi. 2. Buxoroliklar obrazi: a) hunarmandlar; b) tarixiy shaxslar; d) afsonaviy shaxslar; h) inson bo'lmagan jonli-jonsiz narsalar obrazi. Adib bu jonli-jonsiz narsalarni kichik bir lavhada, kichik sujetli voqeada bo'lsa ham obraz darajasiga ko'taradi. Sadridin Salim Buxoriyning "Sharif manzaralar" turkum badiialaridan tashqari "Buxoroyi sharifdan taralgan ziyo", "Insoniyat faxr etguvchi zot", ikki qismdan iborat "Kalom ilmining sultoni", "Avliyolar beshigisan, Samarqand", "Biz bilmagan Nasridin yoxud Nasridin afandi tariqat ahlidanmi?", "Vaqtning sochi oqarmas" asarlari borki, badiiyati jihatidan e'tirofga loyiq badiialar sanaladi.

